

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
Kelishuvning
13-ILOVASI**

**“VISA” kartalari saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

VISA International – turli xildagi to‘lov mahsulotlarini (kartalarini) emissiya qiluvchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi moliyaviy tashkilotlarni va institutlarni yagona savdo belgisi ostida va yagona standartlar bo‘yicha birlashtiruvchi xalqaro assotsiatsiya.

Emitent – “Visa” xalqaro to‘lov assotsiatsiyasidan “Visa” belgisi ostida plastik kartalar chiqarish uchun ruxsat olgan moliya tashkiloti (bank);

Ekvayer – “Visa” xalqaro to‘lov assotsiatsiyasidan Savdo-xizmat ko‘rsatish korxonalarini bilan “Visa” kartalariga xizmat ko‘rsatish shartnomalarini tuzishga ruxsat olgan “Kapitalbank” ATB.

Korxonona – “Visa” Kartalaridan foydalanib to‘lov qilinadigan yetkazib berilgan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qilish haqida Bank bilan kelishuv tuzgan savdo-xizmat ko‘rsatish korxonona, yuridik shaxs (mulkchilik shaklidan qat‘i nazar) va/yoki tadbirkorlik faoliyati subyekti.

Karta – “Visa International” standartlari va talablariga javob beruvchi, “Kapitalbank” ATB tomonidan emissiya qilingan har qanday shaxsiy “Visa” xalqaro moliya plastik kartasi;

Karta hisobvarag‘i - Mijoz uchun Bankda AQSH dollarida ochilgan, Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitob qilishga mo‘ljallangan maxsus karta hisobvarag‘i.

Saqlovchi – Kartaga egalik qilish huquqi Bank tomonidan va/yoki “Visa International” standartlari va talablari bilan o‘rnatilgan jarayonlar bilan belgilangan, Kartani to‘lov vositasi sifatida taqdim qiluvchi jismoniy va Karta saqlovchisi.

Yo‘riqnoma - ushbu Tartibning ajralmas qismi hisoblangan (Tartibning 7-Ilovasi), “Visa” plastik kartasi saqlovchilariga Savdo-xizmat ko‘rsatish korxonasida xizmat ko‘rsatish Qoidalari.

Protsessing markazi – Avtorizatsiyani amalga oshirish, Transaksiyalarni, mablag‘larni Karta hisobvarag‘iga va/yoki Kartaga qaytarish bilan bog‘liq operatsiyalarni umumlashtirish va qayta ishlash, shuningdek, boshqa moliyaviy axborotlar taqdim qilish uchun zarur bo‘lgan uskuna va dasturiy ta‘minot bilan jihozlangan “Kapitalbank” ATB Kartalari bo‘yicha operatsiyalarni elektron qayta ishlash Markazi.

Qurilma – Karta Saqlovchisiga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan texnik vositalar. Qurilmalarga quyidagilar kiradi: POS-terminal, PIN terish uchun mijoz klaviaturasi.

POS Terminal – tovarlar yoki xizmatlar uchun karta orqali real vaqt rejimida to‘lovlarni qabul qilishga mo‘ljallangan elektron qurilma. POS Terminal shuningdek, kartaning to‘lov qobiliyatini tekshira oladi, kartaning amalga oshgan transaksiyalari bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘a oladi va ushba ma‘lumotlarni keyinchalik qayta ishlash uchun elektron shaklda bankka yubora oladi.

Transaksiya – Saqlovchining hisobvarag‘ini maxsus kod va Saqlovchining imzosi bilan debetlash uchun ushbu operatsiyani o‘tkazishning qonuniyligi Bank tomonidan tasdiqlanganda, Mijoz tomonidan Qurilma va Karta yordamida amalga oshiriladigan har qanday to‘lov.

Avtorizatsiya – Karta bo‘yicha Transaksiya amalga oshirishga tasdiqlash kodini Bankdan olish vositasida Saqlovchining Karta bo‘yicha to‘lovga qobiliyatini tekshirish jarayoni;

To‘lovlarni qaytarish - Karta Saqlovchisining Karta orqali sotib olgan tovarlar yoki xizmatlardan voz kechishi oqibatida **Korxonona** tomonidan tasdiqlangan va **Korxonona** tomonidan Bank belgilagan shaklda karta Saqlovchisining karta hisobvarag‘iga kirim qilish uchun pul mablag‘larini qaytarish. To‘lovni qaytarish naqd pul shaklda amalga oshirilishi mumkin emas.

Stop list – Korxonona tomonidan ushlab qolinadigan va Bankka qaytariladigan haqiqiy bo‘lmagan Kartalar raqamlari ro‘yxati

Chek – Saqlovchilarga Kartalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatishda Transaksiyaning amalga oshganligini tasdiqlovchi sotuv kvitansiyasi.

Vaucher – Saqlovchi tovarlar/xizmatlarni rad qilganida, Mijoz tomonidan rasmiylashtiriladigan, to‘lovni Qaytarish haqida xabarnoma blankasi – to‘lovni qaytarishga chek (Credit Voucher).

Chargeback – qonuniy bo‘lmaganligi sababli Karta Saqlovchisi tomonidan oldin o‘tkazilgan Transaksiya bo‘yicha to‘lov qilish rad qilinganda, “VISA International” qoidalariga asosan rasmiylashtirilgan, Emitent tomonidan Ekvayerdan nizolashadigan Transaksiya summasi operatsiyasi, bunda “Visa” Korxonaning hisobvarag‘ini debetlaydi.

Reversal – kommunikatsion xatoliklar (aloqadagi uzilishlar) sodir bo‘lganda ham shakllanishi mumkin bo‘lgan “Visa” Kartasi bo‘yicha POS terminaldagi transaksiyani bekor qilish. Bunday holat yuzaga kelganda ushbu transaksiya xato o‘tkazilganligi haqida ma’lumot Chekda ko‘rsatiladi.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta’riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

1.3. Ushbu Tartibda va/yoki Yo‘riqnomada va/yoki Kelishuvda va/yoki Bankning boshqa hujjatlarida belgilanmagan atama va tushunchalar “VISA International” hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va Taraflar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda belgilangan mazmunda, iboraning matnidan kelib chiqib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi hamda sharhi bo‘yicha qo‘llaniladi.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Karta hisobvarag‘i ochish va Karta chiqarishga Mijoz tomonidan qo‘lda (qog‘oz shaklida) yoki ERI bilan (IBK tizimi bo‘yicha elektron shaklda) imzolangan Qurilmani taqdim qilishga Arizaga (keyingi o‘rinlarda “Ariza” deyiladi) asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) hamda Mijozning “Visa” xalqaro plastik karta Saqlovchilariga Bank tomonidan xizmat ko‘rsatish maqsadida Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, aynan:

- Mijozdan “Visa” plastik kartalari bo‘yicha to‘lovlarni qabul qilishga mo‘ljallangan Bank terminallariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Mijozga xizmatlar taqdim qiladi;

- Mijozda o‘rnatilgan Bank terminali orqali “Visa” kartalari bo‘yicha o‘tkazilgan transaksiyalarini qayta ishlash bo‘yicha Mijozga xizmatlar taqdim qiladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank Tariflar, shuningdek, Ariza, birgalikda VISA kartalari Saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish Shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) tashkil qiladi.

III. “VISA” KARTASI SAQLOVCHILARIGA XIZMAT KO‘RSATISH TARTIBI

3.1. Mijoz karta Saqlovchilaridan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun to‘lovlarni Visa kartasi bo‘yicha qabul qilishni amalga oshiradi.

3.2. Qurilma Mijozga Shartnomani amal qilish muddatiga vaqtincha foydalanish uchun tekin topshiriladi.

3.3. Bank Qurilmasi shartnoma muddati tugashi yoki Shartnoma bekor qilishini bilan, shuningdek, nosoz/ishlamaydigan bo‘lib qolganda almashtirilganda Bankka qaytarilishi kerak.

3.4. Shartnoma bo‘yicha hisob-kitoblar AQSH dollarida amalga oshiriladi. Mijoz Cheklarni va Shartnomaga aloqador boshqa xujjatlarni rasmiylashtirishda summalarni AQSH dollarida ko‘rsatadi.

3.5. Bank, Mijoz va Saqlovchining naqd pulsiz hisob-kitoblar doirasidagi o‘zaro aloqasi O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bankning majburiyatlari:

4.1.1. Karta Saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish maqsadida Ariza olingan kundan 5 (besh) bank kuni ichida topshirish-qabul qilish Dalolatnomasiga asosan Bank Qurilmasini Mijozga tekin foydalanishga berish;

4.1.2. Bank Qurilmasini Mijozda o‘rnatayotganda, shuningdek, Bank Qurilmasining ishi bilan oldin tanishtirilgan Mijoz xodimlari (ishchilari) ishdan bo‘shaganda Mijozning yozma murojaatiga asosan Mijoz xodimlarini (ishchilarini) undan foydalanish qoidalarini yetkazish va ular bilan tanishtirish;

4.1.3. Bank tomonidan transaksiyalar qayta ishlangandan so‘ng besh bank kundan kechiktirmasdan Kartalar orqali Shartnoma shartlariga asosan amalga oshirilgan va taqdim qilingan barcha qayta ishlangan transaksiyalar summasini vositachilik haqini ayirgan holda Mijozning hisobvarag‘iga ko‘chirib berish;

4.1.4. Mijozning yozma talabnomasiga asosan Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmalarni (hisobotlarni) mauyyan vaqt oralig‘ida berish;

4.2. Bankning huquqlari:

4.2.1. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Mijozni identifikatsiya qilishga imkon beruvchi va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlaydigan ma’lumotlar va hujjatlarni Mijozdan talab qilish;

4.2.2. Korxonada ushbu Tartibning 4.3.1-4.3.32 bndlari ko‘rsatmalarini buzsa yoki bir oy davomida Mijozda Kartalar bo‘yicha aylanmalar amalga oshirilmagan bo‘lsa Shartnomalar bir tomonlama bekor qilish;

4.2.3. Taqdim qilingan Transaksiyaga Mijozning to‘lovini ushlab turish yoki Mijozga to‘langan bo‘lsa, Transaksiya summasiga teng to‘lovni qaytarish, agar:

- Transaksiya bo‘yicha ma’lumotlar Shartnoma va Yo‘riqnomani buzib taqdim qilingan hamda berilgan bo‘lsa;

- Saqlovchi Transaksiyaga nisbatan da’vo kiritgan bo‘lsa va da’vo “Visa International” va/yoki O‘zbekiston Respublikasining vakolatli sud organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo‘lsa;

- Mijozni qayta ma’muriy bo‘ysunish va tugatish jarayoni mavjud bo‘lsa. Bunday holatda to‘lovlar tugatish komissiyasining yoki huquqiy vorislik masalalari bo‘yicha boshqa vakolatli organlarning tegishli qarorigacha to‘xtatib turiladi;

4.2.4. Qaytarilgan to‘lovlar bo‘yicha (Reversal, Chargeback, Credit Voucher) mablag‘larni Mijozning asosiy/ikkilamchi talab qilib olinguncha hisobvarag‘idan akseptsiz tartibda yechib olish;

4.2.5. Mijozdan vositachilik haqini Bank Tariflariga asososan yechib olish

4.2.6. Topshirilgan Bank Qurilmasiga ta'mirga yaroqsiz holga keladigan darajada shikast yetkazilganda/ buzilganda Mijozdan Bank Tariflariga asosan jarima undirish. Qurilmaning ta'mirga yaroqsiz holati mustaqil ta'mir xizmati tomonidan o'tkaziladigan ekspertiza natijalari bo'yicha aniqlanadi hamda ushbu xizmat tomonidan beriladigan xulosada ko'rsatiladi. Ekspertizani o'tkazish bo'yicha xarajatlar Mijozning zimmasida bo'ladi. Qurilmaga shikast yetkazilganligi/buzilganligi holati qurilmaning shikast yetkanglik/buzilganlik Dalolatnomasi (Tartibning 3-Ilovasi) bilan tasdiqlanadi. Yo'qolganlik holati yo'qolganlik Dalolatnomasi ((Tartibning 4-Ilovasi)) bilan rasmiylashtiriladi va tasdiqlanadi;

4.2.7. Mijoz tomonidan taqdim etilgan Cheklar/ Vaucherlar noto'g'ri to'ldirilganda yoki Shartnomalar shartlari buzilganda ularni qabul qilmaslik;

4.2.8. Bank amaldagi qonunchilik, ushbu Qoidalar, Yo'riqnomalar va "Visa" xalqaro to'lov tizimi Qoidalariga asosan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi. Bunda Bankning o'z hohishi bilan Mijozning Shartnoma yoki Yo'riqnomalarni har qanday buzishi bo'yicha qonuniy huquqidan voz kechishi keyingi yoki davom etayotgan buzilishlar bo'yyiv huquqidan voz kechganligini anglatmaydi.

4.3. Mijozning majburiyatlari:

4.3.1. Bankning Qurilmasini qabul qilish, POS-terminalni o'rnatish uchun joy taqdim qilish va topshirilgan Qurilmaning saqlash va butligi uchun javobgar bo'lish. Qurilmani topshirilganligi topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. (2-Ilova);

4.3.2. Karta Saqlovchilari tomonidan taqdim qilingan, Shartnoma va Yo'riqnomalarda belgilangan, stop-list ro'yxatida bo'lmagan Kartalarni to'lov vositasi sifatida tan olish va qabul qilish hamda xizmatlar va tovarlarni, ular naqd pulda qaysi shartlar asosida taqdim etilsa, xuddi shunday shartlar asosida taqdim eish;

4.3.3. muayyan (alohida) Transaksiyani amalga oshirish vaqtida Saqlovchi Karta hisobvarag'idagi qoldiqdan yuqori bo'lgan summadagi tovarlar/xizmatlarni so'rayotgan bo'lsa, tasdiqlash uchun Bankka murojaat qilish (Bank Yo'riqnomalariga asosan);

4.3.4. Avtorizatsiya amalga oshganidan keyin sotuv amalga oshmagan bo'lsa, tasdiqlashni bekor qilish uchun darhol Bank bilan bog'lanish va Mijoz ushbu shartlarni bajarmagan do'lsa yetkazilgan barcha zararlarni Bankka qoplab berish;

4.3.5. Shartnoma va Yo'riqnomalarga asosan Kartalar bo'yicha o'tkazilgan Transaksiyalar bo'yicha Terminalning Inkassatsiyasini har kuni ta'minlash;

4.3.6. Shartnoma va Yo'riqnoma shartlariga asosan Cheklar va Vaucherlarni rasmiylashtirish;

4.3.7. Xuddi shu Karta bo'yicha rasmiylashtirilgan cheklar Mijoz tomonidan Bankka topshirilganidan so'ng Saqlovchi tovarlar/xizmatlarni rad qilsa, Vaucher to'ldirish va uni Kartalar bo'yicha boshqa Transaksiyalar bilan birga Bankka berish;

4.3.8. Tovar/xizmatlar xaridi uchun to'lovni bitta transaksiya bilan o'tkazish. Tovar/xizmatlar xaridi uchun to'lov summasini bir nechta Cheklarga bo'lish ta'qiqlanadi;

4.3.9. Har bir Chekla/Vaucherda Transaksiyaning summasini va o'tkazilgan sanasini, Saqlovchining nomini, Karta raqamini, Kartaning amal qilish muddatini, Mijozning ma'lumotlarini Saqlovning Chekda/Vaucherda imzosi bilan ko'rsatish;

4.3.10. Qurilma vositasida Transaksiya amalga oshirishda Bankning PMda avtorizatsiya kodini olish. Avtorizatsiya kodi bir vaqtning o'zida Bankning PM kodlari kompyuter reyestrilarida, "Visa International" avtorizatsiya markazida va Chekda mavjud bo'lsa, Avtorizatsiya kodi Bank orqali olingan hisoblanadi. Avtorizatsiya qilish rad qilinganda Bank uning sabablarini Mijozga tushuntirmaydi;

4.3.11. Kartalar Mijoz tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinayotganligini ko'rsatish uchungina Bank terminallari o'rnatilgan xonalarida Bank tomonidan yetkazib berilgan reklama belgilarini va boshqa materiallarni yetarlicha ko'rsatish va Bank tomonidan ma'qullangan nomlar yoki tasvirlardan foydalanish;

4.3.12. Shartnoma shartlariga taalluqli har qanday reklama mahsulotini Bank bilan kelishish va uning yozma roziligini olish;

4.3.13. Karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatishda Bank tomonidan Mijozga beriladigan Yo'riqnomalarga qat'iy rioya qilish;

4.3.14. O'tkazilgan transaksiyalar bo'yicha Cheklar/Vaucherlarning nusxalarini ular shakllantirilgan kundan boshlab 3 yil davomida saqlash va Bankning birinchi talabi bilan ularni 3 kun ichida Bankka taqdim qilish;

4.3.15. Avtorizatsiya talab qilmaydigan har bir Transaksiya uchun Bank va Emitent tomonidan Chegara limiti berilganda taqdim qilingan Karta Stop-list ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish;

4.3.16. Avtorizatsiya qilishda Bankdan yoki Emitentdan tegishli buyruq olingan bo'lsa, to'lov sifatida taqdim qilingan Kartani barcha ruxsat etilgan qonuniy vositalar bilan ushlab turish;

4.3.17. Transaksiya o'tkazish uchun faqatgina Bank bergan Qurilmadan foydalanish;

4.3.18. Bankning birinchi yozma talabi bilan 3 bank kuni ichida unga Qurilmani va foydalanilmagan xarajat mahsulotlarini qaytarish;

4.3.19. xizmat ko'rsatish vaqtida Saqlovchiga to'ldirilgan Chek/Vaucherning bir nusxasini berish;

4.3.20. har bir Chek/Vaucherda Transaksiyaning aniq sanasi va vaqtini ko'rsatish;

4.3.21. Bankning Yo‘riqnomalariga asosan Saqlovchini identifikatsiya qilish uchun to‘liq javobgar bo‘lish;
4.3.22. Mijoz tomonidan noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan Cheklar/Vaucherlar “Visa International” tomonidan tan olinmaganda Bank Mijozdan talab qilish huquqiga ega bo‘lgan har qanday Transaksiyalar summasini Bank tomonidan xabarnoma berilgandan keyin 5 bank kuni ichida Bankka qaytarish;

4.3.23. Bankning quyidagilardan kelib chiqadigan yo‘qotishlar, xarajtlar, jarimalar, to‘lovlar va majburiyatlardan himoya qilish:

a) Shartnomani Bankni qo‘shimcha xarajat qilishga olib keluvchi har qanday buzilishidan;

b) Bank tomonidan Shartnoma bo‘yicha Mijozga berilgan Qurilma, reklama va boshqa vositalari bilan noto‘g‘ri muomala qilishdan;

4.3.24. Bankdan yozma so‘rov olgandan keyin Transaksiyalar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazish va Saqlovchining Bankka nisbatan da‘vosini rad qilish uchun 3 kun ichida Mijozning tasarrufidagi barcha hujjatlarni Bankka taqdim qilish;

4.3.25. haqiqiy bo‘lmagan Kartalardan foydalanish bilan sodir qilinadigan firibgarlikni olidini olish va aniqlash uchun Bankka ikki Tarafning fikri bo‘yicha oqilona yordam berish;

4.3.26. Mijozning manzili va rekvizitlari bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar haqida Bankka darhol yozma ravishda xabar berish;

4.3.27. Shartnomaga asosan Qaytarilgan to‘lovlarning barcha summasini 5 bank kuni ichida Bankka to‘lash;

4.3.28. Shartnomaning muddati tugaganda yoki muddatidan oldin bekor qilinganda 2 (ikki) bank kuni ichida Bank Qurilmasini qaytarib berish. Bank Qurilmasining qaytarib berilganligi topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi va rasmiylashtiriladi. (5-Ilova);

4.3.29. Bank Qurilmasi yo‘qotilganida yoki ta‘mirga yaroqsiz holatgancha shikastlanganda yo‘qolganlik Dalolatnomasi(4-Ilova) yoki shikastlanganlik/buzilganlik Dalolatnomasi (3-Ilova) tuzilgandan keyin 5 kalendar kun ichida Bankka zararni va Bank tariflariga asosan jarimani to‘lash;

4.3.30. Shartnoma shartlari va Bank Tariflari bilan o‘rnatilgan vositachilik haqini Bankka o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash;

4.3.31. Bank tomonidan yozma xabarnoma berilgan sanadan 2 (ikki) bank kunidan kechiktirmasdan oldindan to‘lov summasini ushbu Tartibning 5.2. bandida ko‘rsatilgan miqdorgacha to‘ldirish (Bankda milliy valyutada ochilgan talab qilinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvaraqqaga ega bo‘lmagan Mijoz uchun);

4.3.32. Karta Saqlovchilarining Kartalari orqali bir oy mobaynida Transaksiyalar amalga oshirishga imkoniyat bermaydigan, Mijozning savdo nuqtasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar (binoni ta‘mirlash, inventarizatsiya, qayta hisob, davlat vakolatli organlari tekshiruvi va h.k) to‘g‘risida Bankni yozma ravishda ogohlantirish.

4.4. Mijozning huquqlari:

4.4.1. Bankdan amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ko‘chirmalarni yozma ravishda so‘rash;

4.4.2. Bankdan Bank Qurilmasidan foydalanish qoidalari bo‘yicha xodimlarini (ishchilarini) qo‘shimcha o‘qitishni yozma ravishda so‘rash.

4.5. Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:

a) To‘lov qaytarilganida, ya‘ni Saqlovchi tomonidan tovarlar yoki xizmatlar rad qilinganda naqd pul mablag‘lari berish. Ushbu holatda Mijoz Vaucherni to‘ldirish va uni Karta bo‘yicha boshqa Transaksiyalar bilan birga Bankka topshirish;

b) Stop list ro‘yxatida bo‘lgan yoki Yo‘riqnomada keltirilgan “Visa International” standartlariga zid bo‘lgan Kartalarni to‘lov vositasida qabul qilish;

v) bitta tovar yoki bitta xizmat qiymatini qismlil to‘lovlarga bo‘lish va ularni bir nechta Cheklar bilan rasmiylashtirish yoki so‘rov kodini chetlab o‘tish maqsadida boshqa to‘lov vositalari bilan to‘lovni qabul qilish;

g) Mijozga taalluqli bo‘lmagan Qurilmalardan va Cheklar/Vaucherlardan foydalanish;

d) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan nazorat funksiyalariga ega shaxslardan tashqari, boshqa Uchinchi shaxslarga Bank Qurilmasini, sarf materiallarini va Transaksiyalar amalga oshirish haqidagi ma‘lumotlar va tajribani yetkazish;

ye) Bir Transaksiya bo‘yicha ma‘lumotni har qanday shaklda takroran yuborish.

4.5. Taraflar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

V. VOSITACHILIK HAQINI UNDIRISH VA HISOB-KITOBLAR O‘TKAZISH TARTIBI

5.1. Bankda ochilgan milliy valyutada talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvaraqq mavjud bo‘lganda, Terminalga xizmat ko‘rsatilganligi uchun vositachilik haqini Bank tomonidan Korxonadan ushlab qolish Bank Tariflariga muvofiq akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. Bankning vositachilik haqi qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi sanasidan qati nazar Korxonadan to‘liq hajmda undiriladi.

5.2. Korxonada Bankda milliy valyutada talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvaraqqaga ega bo‘lmasa, Korxonada Terminalga xizmat ko‘rsatilganligi uchun vositachilik haqini Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 1 (bir) bank kuni kuni mobaynida Bankda ochiladigan 22896xxx hisobvarag‘iga pul ko‘chirish orqali oldindan to‘lov qiladi. Oldindan to‘lovning miqdori Taraflar tomonidan alohida kelishiladi. Terminallarga xizmat ko‘rsatilganligi uchun har

oylik vositachilik haqi Bank tomonidan oldindan to'lov summasidan akseptsiz tartibda ushlab qolinadi. Oldindan to'lov summasi Bank tomonidan vositachilik haqini undirish uchun yetarli bo'lmasa, Mijoz Bank tomonidan yozma xabarnoma berilgan sanadan 2 (ikki) bank kunidan kechiktirmasdan oldindan to'lov summasini kerakli miqdorgacha to'ldirishi shart.

5.3. Bank Korxonadan terminallarga xizmat ko'rsatilganligi uchun vositachilik haqining to'liq yoki qisman summasini Qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi imzolagan kunda Bank Tariflariga asosan akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

5.4. Shartnoma bekor qilinganida Bank Mijozdan terminallarga xizmat ko'rsatganlik vositachilik haqining to'liq yoki qisman summasini Shartnomaning bekor qilingan sanasidan qat'i nazar, Bank Tariflariga asosan Shartnoma bekor qilingan kunda akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

5.5. Bank Transaksiyalarni qayta ishlaganlik uchun Mijozdan Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi undiradi. Bank tomonidan vositachilik haqini ushlab qolish qayta ishlangan transaksiyalar bo'yicha mablag'larni vositachilik haqini ushlab qolgan holda Mijozning bank hisobvarag'iga ko'chirish vaqtida amalga oshiriladi.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. Shartnoma va Bank Yo'riqnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmasligi Shartnomaning bekor qilinishiga asos bo'ladi, bunda shartnomani bekor qilish shartlari taraflar tomonidan alohida kelishiladi.

6.3. Bir Taraf tomonidan ikkinchi Tarafga Shartnoma predmeti bilan bog'liq zarar yetkazilsa, aybdor Taraf zararni va yetkazilgan zarar summasining 50% miqdorida jarimani to'laydi.

6.4. Cheklar Yo'riqnomaga asosan rasmiylashtirilgan bo'lsagina Bank tomonidan qabul qilinadi. Cheklar va Vaucherlarni to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha javobgarlik Mijozning zimmasida bo'ladi.

6.5. Bank ushbu Tartibning 4.1.3. bandiga asosan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganida Bank Mijozga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0.01% miqdorida, biroq ushbu to'lovning 10 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.6. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:
Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan va zid bo'lgan Transaksiyalar bo'yicha to'lovlarni ta'minlash bo'yicha; Ushbu Tartibning 4.2.2. bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra transaksiyalarni amalga oshirishni kechiktirganlik uchun.

6.7. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

- Cheklar va Vaucherlarning Yo'riqnomalar talablari asosida to'g'ri rasmiylashtirilganligi, Bankka taqdim qilingan har qanday ma'lumotning to'g'riligi uchun;
- Transaksiyani amalga oshirishda AQSH dollaridagi xarid summasini to'g'ri ko'chirilganligi uchun;
- Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasida Visa plastik kartasi saqlovchilariga xizmat ko'rsatish Qoidalarida bayon etilgan qoidalarga so'zsiz rioya qilinishi uchun;
- u tomonidan ushbu Tartibning, Yo'riqnomalarning va Korxonada Visa plastik kartasi saqlovchilariga xizmat ko'rsatish Qoidalarining ko'rsatmalari buzilganligi sababli Mijozga yetkazilgan zarar uchun;
- Mijoz tomonidan Stop list ro'yxatini o'z vaqtida yangilamaganligi oqibatida Stop list ro'yxatida turgan Kartaga xizmat ko'rsatganligi uchun
- Mijozga topshiriladigan Bank Qurilmasining butligi va ishlashi uchun;
- Cheklar, Vaucherlarni rasmiylashtirish qoidalarini, "Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasida Visa plastik kartasi saqlovchilariga xizmat ko'rsatish Qoidalarini"ni buzgan har bir holat uchun Mijozga nisbatan Bank foydasiga tegishli qoida buzish kunida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining 25 % miqdorida jarima undiriladi;
- Karta raqamini qo'lda kiritish usuli orqali avtorizatsiya qilish natijasida bahsli vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan Transaksiya aniqlanganda moddiy tushdagi javobgarlik;
- Shartnomaga muvofiq, Shartnoma predmetiga aloqador Visa xalqaro to'lov tizimi Qoidalariga muvofiq Mijozga yuklatilgan boshqa majburiyatlar bajarilmagan har bir holat uchun Mijoz Bankning foydasiga tegishli qoida buzish kunida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1 (bir) baravari miqdorida jarima to'laydi.

6.8. Taraflardan biri Shartnoma shartlarini bajarishda Amaldagi qonunchilikni buzsa, ikkinchi Taraf buning uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi va Taraflardan biri o'zining Shartnomani bekor qilish haqidagi niyatini Shartnomani ehtimoliy bekor qilinishi sanasidan 45 kalendar kun oldin yozma xabar berguniga (Bank tomonidan oldin berilgan Bank Qurilmasi, xarajat materiallari va boshqa vositalar Bankka qaytarib berilganligi sharti bilan) yoki ushbu Tartibda kelishilgan hollarda va tartibda shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama rad qilingunga qadar amal qiladi.

7.2. Yo'riqnomalar nizomlarga va "Visa International" Qoidalariga asosan Bank tomonidan bir tomonlama ishlab chiqiladi va o'zgartiriladi va qo'llash hamda ijro qilish uchun Mijozga yuboriladi.

7.3. Mijoz ushbu orqali Bankka Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida va u bekor bo'lgandan keyin qo'shimcha 6 (olti) kalendar oy mobaynida, Shartnoma shartlariga asosan Bankka berilishi lozim bo'lgan mablag'larni, shuningdek, amaldagi qonunchilikka, Shartnomaga, Shartnoma predmetiga aloqador Visa xalqaro to'lov tizimi Qoidalariga asosan Karta Saqlovchilariga qaytarilishi lo'zim bo'lgan mablag'larni o'zining Bankdagi va boshqa bankdagi hisobvaraqlaridan nizosiz tartibda yechib olishga huquq/farmoyish berish uchun chaqirib olinmaydigan, so'zsiz, to'g'ridan-to'g'ri va haqiqi huquq beradi.

7.4. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

7.5. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

“VISA” kartalari saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish Tartibiga
1-Ilova

KORXONA ANKETASI

Korxonaning nomi _____

Yuridicheskij manzil: _____
Amaldagi manil: _____
Mo‘ljal: _____

Rahbarning F.I.Sh. _____

Rahbarning aloqa telefonlari _____

Buxgalterning F.I.Sh. _____

Buxgalterning aloqa telefonlari _____

Kartalar bo‘yicha olingan tushum kirim qilinadigan bank hisobvarag‘i rekvizitlari _____

Faoliyat sohasi: _____

Mijoz tovarlar/ishlar/xizmatlarini realizatsiya qilish bo‘yicha bir nechta shaxobchalarga ega bo‘lsa va qurilmani o‘rnatish joylari shahar/tumanning har xil qismida joylashgan bo‘lsa, savdo nuqtalari haqida aloqa ma‘lumotlarini ko‘rsatishingizni iltimos qilamiz:

Savdo nuqtasining nomlanishi	Aloqa ma‘lumotlari
_____	Manzil: _____ Mo‘ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh: _____
_____	Manzil: _____ Mo‘ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh: _____
_____	Manzil: _____ Mo‘ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh: _____
_____	Manzil: _____ Mo‘ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh: _____
_____	Manzil: _____ Mo‘ljal: _____ Aloqa telefonlari: _____ Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh: _____

Rahbar _____
(Imzo)
M.O‘: _____

Yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlayman va yuqorida ko‘rsatilgan xodimlarni karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ma‘sul etib tayinlayman.
“Savdo-xizmat ko‘rsatish qorxonasida Visa plastik kartalari saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish Qoidalari” bilan **tanishdim va ular bilan roziman.**

“Kapitalbank” ATB nomidan _____

Mijoz xodimi bilan instruktaj o‘tkazdi

“VISA” kartalari saqllovchilariga xizmat ko‘rsatish Tartibiga
2-Ilova

Qurilmani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi

Toshkent sh

“ _____ ”yil “ ____ ” “ _____ ”

Boshqaruvchi:

Plastik kartalar bo‘limi boshlig‘i _____

/sho‘basi mudiri: _____

dan iborat “Kapitalbank” ATB Vakillari

va Mijoz vakili:

Rahbar: _____

tuzdilar ushbu Dalolatnomani shu haqidakim, quyidagi qurilma:

№	Qurilmaning nomi, modeli	Miqdori	Seriya raqami	Inventar raqami
1	Savdo terminali (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga) _____			
2				
	Jami			

“Kapitalbank” ATB Vakillari tomonidan **TOPSHIRILDI**, Mijoz Vakili tomonidan esa **QABUL QILIB OLINDI**.

Qurilma topshirilayotgan vaqtda soz holatda.

Aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish xususiyati va sabablari haqidagi vakillarning xulosasi: kamchiliklar aniqlanmadi..

Taraflar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

Bank tomonidan topshirildi:

Mijoz tomonidan qabul qilib olindi:

Boshqaruvchi

F.I.Sh.

M.O‘.

Plastik kartalar bo‘lim boshlig‘i

Imzo

M.O‘.

“VISA” kartalari saqllovchilariga xizmat ko‘rsatish Tartibiga
3-Ilova

QURILMANING SHIKASTLANGANLIGI/BUZILGANLIGI HAQIDAGI
DALOLATNOMA

_____ sh

20 ___y “___” _____

Biz quyida imzo chekuvchilar “Kapitalbank” ATB _____
Bo‘linmasi/Filiali Boshqaruvchisi _____ bir tomondan va keyingi
o‘rinlarda _____ nomidan
_____ asosida harakat qiluvchi Mijoz Rahbari ikkinchi tomondan,
karta Saqllovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun Bank tomonidan topshirilgan Qurilmaning
shikastlanganligi/buzilganligi haqida ushbu Dalolatnomani tuzdik:

Terminal modeli: _____

Seriya raqami: _____

Tashqi holati:

(tashqi shikastlanishlar ko‘rsatilsin)

Nosozlikning xususiyati: _____

(nosozlik nimada ifodalanganligi ko‘rsatilsin)

Ishlashga yaroqsizlik sabablari: _____

(buzilishning sababi va buning oqibatida Shartnomaning qaysi bandlari buzilganligi ko‘rsatilsin)

DALOLATNOMA ikkita bir xil nusxada tuzilgan

TARAFLARNING IMZOSI:

Bank tomondan:

(F.I.Sh., lavozimi)

(imzo, sana)

Mijoz tomondan:

(Rahbarning F.I.Sh.)

(imzo, sana)

M.O‘.

“VISA” kartalari saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish Tartibiga
4-Ilova

YO‘QOLGANLIK DALOLATNOMASI

_____ sh 20__y “____” _____

Biz quyida imzo chekuvchilar “Kapitalbank” ATB _____ Bo‘linmasi/Filiali
Boshqaruvchisi _____ bir tomondan va keyingi o‘rinlarda
_____nomidan _____asosida harakat
qiluvchi Mijoz Rahbari ikkinchi tomondan, karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun Bank tomonidan Mijozga topshirilgan
Qurilmaning yo‘qolganlik holati haqida ushbu Dalolatnomani tuzdik:

Terminal modeli: _____

Seriya raqami: _____

Yo‘qolish sabablari: _____

(yo‘qolishning sabablari va buning oqibatida Shartnomaning qaysi bandlari buzilganligi ko‘rsatilsin)

DALOLATNOMA ikkita bir xil nusxada tuzilgan

TARAFLARNING IMZOSI:

Bank tomonidan:

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, sana)

SXX tomonidan:

(Rahbarning F.I.Sh.)

(imzo, sana)

M.O‘.

Qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi

_____ sh.

20__y “___” _____.

Ushbu dalolatnoma tuzildi, shu haqidakim, quyidagi qurilma:

№	Qurilma nomi	Miqdori	Seriya (inventar) raqami
1	Savdo terminali (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)		
	Jami		

“Kapitalbank” ATB _____ filiali Boshqaruvchisi _____ va Plastik kartalar bo‘limi boshlig‘i/ sho‘basi mudiri _____ dan iborat tarkibdagi “Kapitalbank” ATB vakillari tomonidan **QABUL QILIB OLINDI,** _____ tomonidan esa **TOPSHIRILDI.**

Qurilma topshirilgan paytda _____ da joylashgan.

Aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish xususiyati va sabablari haqidagi vakillarning xulosasi:

Taraflar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

Bank tomonidan qabul qilindi:

Mijoz tomonidan topshirildi:

Boshqaruvchi

M.O‘.

Plastik kartalar bo‘limi
Boshlig‘i/sho‘basi mudiri

Rahbarning F.I.Sh.

Imzo

M.O‘.

“VISA” kartalari saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish Tartibiga
6-Ilava

Korxonada xodimlari va uning Savdo nuqtalarida o‘quv o‘tkazilganligi haqida
Dalolatnoma

Visa Karta Saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv o‘tkazildi.
Savdo terminali bilan ishlash va Karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatish Qoidalarini o‘rgandim.
Bankning Yo‘riqnomasini o‘z qo‘lim bilan oldim, uning ko‘rsatmalariga so‘zsiz rioya qilish majburiyatini olaman.

1. _____
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo, o‘quv sanasi)
2. _____
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo, o‘quv sanasi)
3. _____
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo, o‘quv sanasi)
4. _____
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo, o‘quv sanasi)
5. _____
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo, o‘quv sanasi)

Mijozning Rahbari

(F.I.Sh., imzo)

M.O‘.

Yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning haqiqiylikini tasdiqlayman va yuqorida ko‘rsatilgan xodimlarni Terminal bilan ishlash va karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ma‘sul etib tayinlayman.
Yo‘riqnomani oldim.

Bank Vakili

_____(F.I.Sh.,
imzo)

Korxonada xodimlariga Savdo terminali bilan ishlash va karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘quvni o‘tkazdi, Korxonada Rahbariga Yo‘riqnomani topshirdi.

